

TARIXIY MANBALARDA BUYUK SALJUQIYLAR DAVLATI HAQIDA
KELTIRILGAN MA'LUMOTLAR

Tilabjonova Sevinch Shuhrat qizi

Tarix yo'nalishi talabasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o'rta asrlarda mavjud bo'lgan, Buyuk Saljuqiylar davlatining kelib chiqishi va bu davlatning olib borgan siyosati, buyuk davlat bo'lgunga qadar bosib o'tgan yo'llari, harbiy qudrati, harbiy yurishlari, davlat darajasiga ko'tarilishi hamda parchalanishiga qadar bo'lgan davr ma'lumotlari keltiriladi.*

Kalit so'zlar: *Turkiylar davlati, o'g'uz, To'g'rul, Zarafshon daryosi, Movarounnahr, Marv.*

X asrning ikkinchi yarmi va XII asr oralig'ida Buyuk saljuqiylar nomi bilan tarixga kirgan yana bir Turkiylar davlati tarix xaritasida namoyon bo'ldi. Buyuk Saljuqiylar davlati turkiy xalqlar tomonidan qurilgan eng katta davlatlardan biri hisoblanadi. Saljuqiylarning kelib chiqishi o'g'uz-turkmanlarning qiniq urug'idan bo'lgan. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'oti turk" asarida saljuqiylarning kelib chiqishi qiniqlardan ekani quyidagicha ifodalanadi:

"O'g'uz – turkiy qabilalardan biri, ular turkmanlar ham. Ular yigirma ikki urug'dan iborat. Ularning birinchi va asosiy urug'i – qiniq. Bizning zamondagi sultonlar shu urug'dan" [1] – degan ma'lumotlar keltirilgan. O'g'uz qabilalari bir necha urug'larga bo'lingan edi. Ushbu urug'lardan biri qiniq urug'i bo'lib, uning sardori – Saljuq ibn Do'kak ismli kishi bo'lgan. Tarixchi olimlar, xususan Ibn al Asir Saljuqni iste'dodli, o'z fikr-mulohazasiga ega rahbar sifatida ta'riflaganlar. Saljuqiylar o'z nomini urug' yetakchisi Saljuq nomidan olganlar. Saljuqning Muso, Yunus, Mikoil va Isroil ismli o'g'illari bo'lgan. Isroil manbalarda Arslon nomi bilan keltiriladi, Dovud esa Chag'ri nomi bilan ataladi. To'g'rul keyinchalik o'ziga Muhammad ismini ham olgan [2].

Saljuqiylar dastlab quyi Sirdaryo hududidagi Jand tumanlari atrofida chorvachilik qilib ko'chib yurganlar. Ammo bu yerning hokimi Shohmalik bilan urushib qolib, Zarafshon daryosining o'ng qirg'og'iga – Nur (Nurota) tumaniga ko'chib ketishga majbur bo'ladilar. Bu tuman hududlarida ko'chib yurishga somoniylar ruxsat bergan edilar. Somoniylar saljuqiylar bilan yaxshi, tinch-totuv yashashdan manfaatdor edilar. Chunki Saljuqiy turklar Qoraxoniylarga qarshi kurashda somoniylarga yordam berardilar. Saljuqiylar davlatining qudratini hali kuchli davlatlar qudrati darajasiga ko'tarilmagan mahalda ham, ularning yordamidan manfaatdor bo'lgan davlatlar oz bo'lmagan. Tarixchilarning ta'kidlashicha, Saljuqiy yuz yil yashagan, uning vorislariga kelsak, uning o'g'li Mikoil yosh vafot etdi, Muso insofsiz bo'lib chiqdi. Saljuqiylar oilasining shon shuhrati yuksalishi uchun Isroilning o'gli Kutulmush va Mikoilning ikki o'g'li, Tug'rulbek va Chag'ribekdan qarzdor edi. Hokimiyat vorislar qo'liga o'tgunga

qadar saljuqiylar ikkiga bo'lingan edi guruhlar: birinchisini Isroil, ikkinchisini Muso jiyanlari bilan boshqargan Tug'rubek va Chag'ribek [3].

Shunday ziddiyatlar bo'lishiga qaramay Saljuqiylar davlati yuksalishni to'xtatmadi. Saljuqiy vafotidan keyin uning nabiralari Mikoilning o'g'illari To'g'rub va Chag'riylar, turkmanlarning boshida turdi, garchi buning uchun ularga bo'lgan qarshiliklarni yengishlari kerak edi. Saljuqning boshqa bir o'g'li yabg'u Arslon (Isroil)ga bo'ysungan bir qismining qarshiligini yengishlari kerak edi. Movarounnahrda raqobat sharoitida turkmanlar, ikkita kuchli turkiy davlatlarni G'aznaviylar homiyliги ostida qamrab olishga harakat qilishdi.

Biroq, tez orada Sulton Mahmud G'aznaviy (998-1030) ning bosimi ostida ular Movarounnahrni tark eta boshladilar va asta-sekin Xurosonga qaytashdi. Shu bilan birga, yangi yerlarni qidirishda ular G'arb davlatlariga e'tibor qaratishdi. Shu maqsadda turkman otliqlari tarkibida taxminan uch mingga yaqin chavandoz birinchi marta uzoqdan Ozarbayjonga va Anatoliy yerlariga razvetka maqsadida reydu uyushtirdi. Mirxodning bergan ma'lumotlariga ko'ra, Chag'ri boshchilik qilgan turkman otliqlari Rey orqali o'tib, Ozarbayjonga yetib kelib, bu yerlarga ancha vaqt oldin ko'chib kelgan o'z qabiladoshlarini uchratishadi [4].

Saljuqiylar davlati o'zning ziyrak va zehnli ekanligini shu yo'llar orqali yaqqol namoyon qilishgan desak mubolog'a bo'lmaydi. Ular Movarounnahrda erishish maqsadida har hil yo'llardan yurib ko'rdilar. Bu yo'llar esa ularning foydasini yanada oshirdi ular bu yo'llar orqali uchratgan qabiladoshlari bilan birlashib yanada kuchli qo'shinga ega bo'lishdi va o'zlari maqsad qilgan yerlarni bosib olish ilinjida yurishlarini davom etdirishdi.

Mahmud G'aznaviy 1025-yili 4000 oiladan iborat saljuqiylarga Amudaryodan kechib o'tib, Saraxs, Farova, Obivard atroflaridagi yerlarga kelib o'rnashishga ruxsat beradi. Saljuqiylarning bir qismi Isfahon va Kirmonga ketishlari ma'lum muammolarni keltirib chiqardi. 1029-yili Mahmud G'aznaviy ularga qarshi kurash olib bordi. Saljuqiylar avval Mahmud G'aznaviy, so'ngra uning o'g'li Mas'udning soliq siyosatiga qarshiliklar bilan chiqa boshlashadi. Bu paytda Xorazmda ham vaziyat keskinlashadi. G'aznaviylarga qaram bo'lgan Oltuntosh vafotidan so'ng uning o'g'li Xorun ibn Oltuntosh Xorazm hokimi etib tayinlangan edi. Xorun qoraxoniylar bilan til biriktirgan holda, 1030-yili Xurosonga yurish qildi. Mas'ud Xorunni yo'q qilishga muvaffaq bo'ldi hamda qoraxoniylar bilan diplomatik kelishuvni amalga oshirdi. 1038-1039-yillarda Mas'ud G'aznaviy Balxdan Saraxs tomon qo'shin tortib, saljuqiylarning o'sha yerdagi qismlarini tor-mor keltiradi. Mas'uddan uzoqroqda bo'lgan To'g'rubek esa Nishopur atroflarini egallab, katta o'ljani qo'lga kiritadi. Saljuqiylarning To'g'rubek va Chag'ribek Dovud boshchiligidagi qo'shinlari Xurosonning turli hududlarida o'z mavqelarini oshirishadi.

1040-yil bahorida Saraxs va Marv oralig'idagi sahroda joylashgan Dandanakon nomli kichik qal'a yonidagi jang G'aznaviylar sultoni Mas'ud G'aznaviyning (1030-1041) mag'lubiyati bilan tugaydi [5].

Saljuqiylar o'zlarining harbiy kuchlari bilan asta-sekin qudratli davlat maqomiga erisha boshlashdi. Ular harbiy kuchlariga alohida e'tibor qaratganlar. Masalan R.A.Guseynovning bergan ma'lumotlariga ko'ra; Armiya saljuqiy davlati hayotida katta rol o'ynagan, urush va harbiy o'lja nafaqat siyosiy doktrinaning, balki iqtisodiy siyosatning asoslaridan biri edi: Saljuqiylarning armiya tuzilishi va jamiyati istilo faoliyatini talab qilar edi, chunki ushbu armiyani saqlash xarajatlarini, faqat hududiy bosib olishlar evaziga saqlash mumkin edi. O'z asarida shunday ta'kidlaydi. Saljuqiylarda harbiy kuchlarning paydo bo'lishi, qabilaviy jamoa bo'lib harakat qilishdan farqliroq endilikda ularda o'z taktikasiga ega bo'lgan kuchli bir armiyasi paydo bo'ldi. Xatto Nizomiy Ganjaviy ham bir hukmdorni fikrini eslatib o'tadi: "Men xazina va armiya birlashtirish kerak ekanligini angladim, Xazina va armiyadan — boshqa himoya yo'q" [6] degan ekan. Buni tushunib yetgan saljuqiylar ham bor kuchlarini, boyliklarini birinchi bo'lib armiyaning mustahkamligiga qaratadi. Armiyasi kuchli bo'lgan davlat har doim o'z o'rniga ega bo'lgan.

Ravendi quyidagi sabablar bilan saljuqiylarning urush olib borishdagi kuchlarini shunday tavsiflaydi:

- Birinchisi, askarlarning urushdagi harbiy o'ljaga bo'lgan umidi;
- Ikkinchisi, armiyani eng yuqori darajada egallagan qasos hissi;
- Uchinchisi, dushman qo'shinini egallab olgan qo'rquv hissi;
- To'rtinchisi- tinchlikka umid qilish, ularning nafratiga bo'lgan niyatlarni yumshatish va kamaytirish;

Shu sabablar bilan saljuqiylar armiyasini kuchini rivojlantirishar edi. Xatto 1041-yili Muhammad va uning taraldorlari tomonidan Mas'ud o'ldirilgach, Mas'udning o'g'li Mavdud bu voqeadan xabardor bo'lgach, katta qo'shin bilan Dinur (Fathobod) yonidagi jangda amakisi Muhammadni mag'lubiyatga uchratadi. Mavdud garchi Termiz va Balxni qo'lda ushlab qolgan bo'lsa-da, lekin u yuborgan qo'shini ham saljuqiylardan mag'lub bo'ladi. Saljuqiylar davlatining poytaxti qilib Ray shahri belgilandi. To'g'rubek iloji boricha qoraxoniylar bilan hamkorlikda va tinch yashashga harakat qildi. Ammo bu mustahkam bo'lmagan tinchlik va uzoqqa cho'zilmaydigan hamkorlik edi. 1063-yilda saljuqiylar davlatining asoschisi To'g'rubek vafot etgach, taxtga uning jiyani, Chag'ribek Dovudning o'g'li Alp Arslon (1063–1072) o'tirdi. U davlat poytaxtini Marv (hozirgi Mari)ga ko'chirdi [7].

Saljuqiylar vaqtlar o'tgani sari kuchli bo'lishda davom etdi. Saljuqiylar davlati Alp Arslon podshohligi davrida qoraxoniylar hukmdori Nasr bilan hamkorlik aloqalari yomonlashadi va bir qator shaharlar tomonidan lashkar tortib bordi va 1072-yilda Alp Arslon qoraxoniylarga qarshi yurish boshlab, qariyb 200 ming kishilik qo'shinni Amudaryodan o'tkazish uchun kemalardan maxsus ko'prik qurdirdi. Ammo yurish boshlanishi oldidan Alp Arslon o'z chodirida mahalliy qal'alarning boshliqlaridan biri Yusuf al-Xorazmiy tomonidan o'ldiriladi. Alp Arslonning o'ldirilishi qoraxoniylar xoni Shams ulmulk Nasrning ruhini ko'tarib yubordi va tez orada Termizni, so'ngra Balxni egallab oldi. Ammo bu xursandchilik uzoqqa cho'zilmadi. Alp Arslon o'rniga taxtga

vorislik qilgan Malikshoh (1072–1092) keladi va ko'p vaqt o'tkazmay Termiz va Balxni qoraxoniylardan qaytarib oldi. Ana shu davrdan boshlab ichki va tashqi siyosatda ustunlik batamom saljuqiylar qo'liga o'tdi. Endi har daqiqada Shams Ul-mulk Nasr, Malikshoh hujumidan xavotirda qo'rqib yashaydigan bo'lib qoldi [8].

Saljuqiylar davlati ustunliklari imkoniyatlari aynan shu davrdan boshlab yanada ko'paya boshladi. Malikshoh hukmronligi davrida vazirlik lavozimida ishlagan Nizom ul-mulk (1017–1092) davlat ishlarini boshqarishda katta ta'sir kuchiga ega bo'lgan. Malikshoh uni o'z homiysi "otabek" deb atagan. Nizom ul-mulk o'zining "Siyosatnoma" asari bilan mashhur. Malikshoh hukmronligi davrida vaziri Nizom ul-mulk bilan davlatni birga boshqarib oqilona podshoh bo'lib tarixda o'chmas iz qoldirdi. Malikshoh davlatning poytaxti bo'lmish Marvda katta observatoriya qurdiradi. Uning davrida ilm-fanga va boshqa sohalarga ham e'tiborlar qaratilgan. 1092-yilda saljuqiylar xoni Malikshoh ham o'ldirildi. Saljuqiylar davlatida isyon va g'alayonlar boshlanib ketdi. Toju-taxt uchun kurashlar boshlanib ketdi. Bu isyon va g'alayonlar hokimiyat tepasiga 1118-yilda – «ulug' saljuqiylar»ning eng so'nggi vakili Sulton Sanjar (1118–1157) kelgach tinchidi.

Sanjarni uzoq hukmronligi davrida o'z davri kishilik jamiyati, muarrixlar «malik al-mashriq», «buyuk sulton», «sultonlar sultoni», «ulug' shahanshoh» nisbalari bilan ulug'lashgan. Sulton Sanjar o'z poytaxti sifatida Marv shahrini tanlagan [9]. Uning hukmronligi davrida ham sharoitlar yaxshi bo'lgan. Saljuqiylar davlati 1141-yilda Sulton Sanjar va uning vassali hamda ittifoqchisi, qoraxoniy Mahmudxonning birlashgan qo'shinlari bilan qoraxitoylar o'rtasida Samarqand yaqinidagi Qatvon cho'lidagi jangda Sulton Sanjar qo'shinlari mag'lubiyatga uchraydi. Natijada Movarounnahr qo'ldan ketib, sultonning mavqeyi ancha pasayib ketadi. Saljuqiylarning magiubiyatidan xorazmshoh Qutbiddin Muhammad Otsiz ustalik bilan foydalanib, 1141-yilning qishida saljuqiylarning poytaxti Marvni bosib oladi va 1142-yilda Nishopurga yurish qiladi. Lekin Sulton Sanjar Xorazm qo'shinlarini Xurosondan quvib chiqaradi va Otsizni yana o'ziga bo'ysundirishga erishadi. Sulton Sanjarning harakatlariga qaramay, Saljuqiylar davlati o'zining avvalgi qudratini yo'qota boshlagan edi. Saljuqiylarga hal qiluvchi zarbani Balx va Xuttalon viloyatlarida yashovchi o'g'uz qabilalari beradi. 1153-yilda ular Sulton Sanjar qo'shinlarini tor-mor etib, uning o'zini asir olishadi. O'g'uzlar himoyasiz qolgan Marv va Nishopur shaharlarni talon-toroj qilib, ularga o't qo'yishadi. Sulton Sanjar 1156-yilda asirlikdan qutulishga muvaffaq bo'lsa ham, lekin Saljuqiylar davlatini qayta tiklay olishmaydi. U bir yildan so'ng vafot etadi. Sulton Sanjar vafoti bilan (1157-y.) saljuqiylarning O'rta Osiyodagi hukmronligi o'z poyoniga yetadi [10].

Saljuqiylar davlati qudrati yuksalib ketayotgan bir davrda muammolarni to'g'ri hal qila olmaganliklari sababli ularning asrlar davomida yuksalgan davlati bir maromda parchalanib ketdi. Xulosa qilib, aytish kerakki Buyuk Saljuqiylar davlati o'rta asrlarda o'z maqveiga va qudratiga ega bo'lgan harbiy jihatdan kuchli davlatlardan biri edi. Saljuqiylar davlat darajasiga yetguniga qadar mashaqqatli yo'llarni bosib

o'tishdi. Ko'plab qarshiliklarga duch kelishdi ammo ular to'xtatmadi. Lekin har bir narsaning boshlashini bo'lgani kabi yakuni ham bo'ladi. Saljuqiylar davlatining ham yakuni bo'ldi. Ammo ular tarixda o'chmas iz qoldirgan kuchli davlatlardan biriga aylandi. Hozirgi kunda Saljuqiylar tarixini ko'plab davlatlar o'rganib chiqib ularning tarixiga yanada chuqurroq qiziqishmoqda. Saljuqiylar davlati tarixini o'rganish juda qiziqarli va muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- [1]. Mahmud Koshg'ariy "Devon-u lug'otit turk" asari
- [2]. R.Raxmanaliyev " Империя тюрков. Великая цивилизация "
- [3].R.Raxmanaliyev " Империя тюрков. Великая цивилизация "
- [4].Turan O. Selçuklular Tarihi ve Türk-İslam Medeniyyeti.
- [5].R.Shamsutdinov, Sh.Karimov, O'.Ubaydullayev "Vatan tarixi" 1-kitob
- [6] R.A. Guseynov " Палестинский сборник в ы пуск 17 (80) истории и филология стран ближнего Востока в древности и средневековье "
- [7].R.Shamsutdinov, Sh.Karimov, O'.Ubaydullayev "Vatan tarixi" 1-kitob
- [8].R.Shamsutdinov, Sh.Karimov, O'.Ubaydullayev "Vatan tarixi" 1-kitob
- [9].Sagdullayev A.S." O'zbekiston tarixi" 1- kitob
- [10].Sagdullayev A.S." O'zbekiston tarixi" 1- kitob